

BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O'QUV DASTURI-O'QITUVCHI-BAHOLASH

KALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI**

**"BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH: O'QUV DASTURI-O'QITUVCHI-
BAHOLASH"**

**XALQARO ILMİY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

**«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА-
УЧИТЕЛЬ-ОЦЕНИВАНИЕ»**

**МАТЕРИАЛЫ
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**"IMPROVING PRIMARY EDUCATION CONTENT:
CURRICULUM-TEACHER-ASSESSMENT"**

**MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE**

2023-yil 19-oktabr

BUXORO – 2023

Ilmiy anjuman dasturiy qo'mitasi

- | | |
|----------------|--|
| O.X.Xamidov | - Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor, rais. . |
| T.H.Rasulov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini |
| F.N.Nurulloyev | - IT va IFR departamenti boshlig'i, a'zo. |
| A.R.Hamroyev | - Boshlang'ich ta'lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a'zo. |
| M.M.Yuldasheva | - Boshlang'ich ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), a'zo. |
| A.Sh.Husenova | - Boshlang'ich ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), kotib. |

Ilmiy anjuman tashkiliy qo'mitasi

- | | |
|-----------------|---|
| T.H.Rasulov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais. |
| O.U.Rashidov | - Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, a'zo. |
| F.N.Nurulloyev | - IT va IFR departamenti boshlig'i, a'zo. |
| A.R.Hamroyev | - Boshlang'ich ta'lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a'zo. |
| R.A.Qo'ldoshev | - Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, a'zo. |
| M.G.Navro'zova | - Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, a'zo. |
| N.B.Boymurodova | - Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, a'zo. |
| A.Sh.Husenova | - Boshlang'ich ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), kotib. |

Mas'ul muharrir

A.R.Hamroyev, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

Taqrizchilar:

B.R.Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor.

F.M.Qosimov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

O'rnida "moviy dengizga" tarzida berilgan. Badiiy asarni darslikka kiritish keng kitobxon ommasiga taqdim qilish demakdir. Bunday paytda ehtiyot bo'lish lozim. Asl manbani no'r'in qisqartirish, saviyasiz tarzda nasriy bayonini berish, qisqartirganda mohiyatga putur yetkazish kerak emas.

Rus shoiri tomonidan yaratilgan ertak-dostonni o'zbekning iste'dodli, imonli shoiri Mirtemir O'zbek tiliga o'girgan. Darslikda tarjimon nomi berilmagan. Bunday holni o'zga til vakillari yaratgan adabiy ertak namunalari beriganda ham kuzatish mumkin. Bu, bizningcha, noto'gri. Bundan tashqari "Baliqchi va baliq haqida ertak" ertak dostoni qisqartirilgan. Darslikda ertakning to'liq matnini bermaslik, undan parcha berish mumkin. Ammo qisqartirib bermaslik lozim. Chunki ertak doston qisqartirilganda ba'zi tushunmovchiliklar yuzaga keltirilgan. Qisqartirmay, yarmini keltirib, davomini topib O'qish topshirilganda bolalarni kitobxonlikka o'rgatish yo'lidagi qadarnlardan biri bo'lardi.

Bobning ikkinchi fasilda ertak doston badiiyati tahlilga tortildi. Asar badiiyati deganda boshlang'ich sinf O'quvchisi ertak dostonning mazmunini hikoya qila olishi bilan bir qatorda obrazlariga tavsif bera olishi, vazni, qofiyasini aniqlay olishi, tarkibida tashxis, tazod badiiy san'atlari, maqol, olqish, qarg'ish bo'lsa, topa olishi lozim. Shu sababdan ertak doston badiiyati xususida fikr yuritishni muhim deb bildik.

"O'qish kitobi" darsliklarida nasriy adabiy ertaklarni "adabiy ertak", liro-epik adabiy ertaklarni "she'riy adabiy ertak", ertak doston; xalq ertaklarini "ertak" yoki "O'zbek xalq ertagi", "arab xalq ertagi" tarzida berish lozim. Hikoya, she'r, afsona, rivoyat singari janrlarga ham sinfma-sinf soddadan murakkabga qarab tamoyili asosida qoida berib borish bolalarning badiiy asarlarni idrok etish darajasini oshirib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 464 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatning rivojlanishi – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq sO'zi, 2017.
– 4 avgust.
3. Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007. – B.80.
4. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O'qish kitobi. Umumiyyatlim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Yangiyul: Yangiyul Poligraph Service, 2020. – B. 62.
5. YO'ldoshev Q. Badiiy asar tahlili // Kitobda: O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. (Tuzuvchi va nashrqa tayyorlovchi B.Karimov). – Toshkent:Turon-Iqbol, 2011. – B.352.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: Rus tili, 1981. – B.517.
7. Pushkin A.S. Baliqchi va baliq haqida ertak. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2018. – B.7.
8. Abdiqulov T. Bolalar poemachiligining taraqqiyot tendensiyalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1976. – №3. – B.68-71.

ELBEK O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASINING ASOSCHISI

Saparova Shahlo Ramazonovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada o'tgan asrimizning serqirra ijodkor, jadid adabiyotimizning yorqin vakili Elbek (asl ismi Mashriq Yunusov)ning ona tili va bolalar adabiyotini o'qitish metodikasiga qo'shgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, metodist olimning "Boshlang'ich maktablarda ona tili", "O'zbekcha o'qish kitobi", "Go'zal yozg'ichlar" darsliklari va bir qator bolalar uchun yozilgan to'plamlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: "Boshlang'ich maktablarda ona tili", "O'zbekcha o'qish kitobi", "Go'zal yozg'ichlar" darsliklari, "Tanlangan asarlar".

Аннотация. В статье освещен вклад Эльбека (настоящее имя Машрик Юнусов) в методику преподавания родного языка и детской литературы. Приводятся также учебники ученого-методиста "Родной язык в начальной школе", "Книга для чтения на узбекском языке", "Красивые тетради" и ряд сборников, написанных для детей.

Ключевые слова: "Родной язык в начальной школе", "Книга для чтения на узбекском языке", учебники "Красивые тетради", "Избранные произведения".

Annotation. The contribution of Elbek (real name Mashriq Yunusov) to the methodology of teaching mother tongue and children's literature is highlighted in the article. The Methodist scientist's textbooks "Native language in primary schools", "Uzbek reading book", "Beautiful notebooks" and a number of collections written for children are also cited.

Keywords. "Mother language in primary schools", "Uzbek reading book", "Beautiful notebooks" textbooks, "Selected works".

Elbek o'zbek tilining o'tkir bilimdoni va til o'qitishning katta metodisti, yaratuvchi pedagogi sifatida maktab tarbiyasining asosi sanalmish-boshlang'ich maktablar ona tili o'qituvchilariga bag'ishlab, ona tili o'qitishning yo'l-yo'rqliari xususida "Boshlang'ich maktabda ona tili" kitobini yozdiki, bu kitobning ilmiy-amaliy kuchi g'oyat katta ahamiyatga ega. Bu bejiz emas, Elbek 20-yillarda Turkiston Maorif komissarligi huzuridagi ilmiy-metodik kengashning faol a'zosi edi. Bu davrda yangi ochila boshlagan sho'ro maktablari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari yo'q darajada edi. Shu munosabat bilan Elbek bu borada qator darsliklar yaratgan. Bundan tashqari, Oktyabr o'zgarishigacha jadidlar tomonidan yaratilgan darsliklardan foydalanish zararli deb topilgan. "Boshlang'ich maktablarda ona tili" darsligi ona tili va adabiyoti o'qitish metodikasi bo'yicha dastlabki uslubiy qo'llanma ekanligi bilan e'tirofga sazovor. Muhimi, asarda muallif metodika ilmining boshqa amaliy masalalari bilan bir qatorda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga birlamchi va o'ta mas'uliyatlari vazifa sifatida qaraydi:

1. Unda o'quvchilarning badiiy asarni eng chiroyli, ta'sirchan parchalarini topib, ko'chirib yozish.

2. Rasmga qarab, o'z fikrlarini, unda qoldirgan taassurotlarni og'zaki va yozma bayon qilishgacha bo'lgan jarayonni ko'rsatib o'tad¹.

Mazkur metodik asarda badiiy adabiyot namunalarini o'rganish masalasiga to'xtalar ekan: "Ulug' bir vazifa-bolaga tuzuk tarbiya berish uchun uni go'zal adabiyot bilan tanishtirish ham bolani tushunib, o'qub o'qushga o'rgatish kerakdur" - deb yozadi Elbek.

Elbek boshlang'ich maktablarda ona tili darslarini to'g'ri o'tilishiga alohida diqqatini qaratadi va "Yozuv yo'llari" nomli darslik yaratadi.

"Yozuv yo'llari" 11 saboqdan tashkil topgan bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1-saboq	Tovishliqlar
2-saboq	Tovishliq cho'zg'ilari
3-saboq	So'z
4-saboq	So'z bo'lagi
5-saboq	Qalin va ingichka cho'zg'ilari
6-saboq	Tutash va uziq tovishliqlar
7-saboq	Qo'shimchalar
8-saboq	Qo'shimchalarning yozilishlari
9-saboq	Tovishliqlarning o'zgarishlari
10-saboq	Qoida
11-saboq	O'qug'uvchilarg'a sinash uchun yuklatilgan ishlar

¹ Saparova Shahlo Ramazonovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-yil aprel. 68-77-betlar. <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52> <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52/128>

Saboqlarda 10 ta qoida, 10ta topshiriq, misollar, so'rog'lar hamda 5 ta eskartishlar ("Eslatmalar", ya'ni nazariy xulosalar) keltirilgan. Quyida ularning bir nechtasini keltirib o'tamiz.

Birinchi saboqda tovishliq (harf)ning ma'nosi hamda soni (23 ta) aytib o'tilgan: *a, b, p, t, ch, j, x, d, z, r, s, sh, g', k, q, g, ng, l, m, n, f, h, y*.² Negadir v harfi berilmagan. Bizning amaldagi alifbomiz asosidagi boshlang'ich sinf darsliklarida esa 26 harf, 3 ta harfiy birikma va tutuq belgisini o'rgatiladi. Shular asosida 24 ta undosh (j harfi ikki tovushni ifodalaydi: jo' ja jurnal kabi), 6 ta unli tovush o'rgatiladi.

Ikkinchi saboqda tovishliq cho'zg'ilari (harf hadlari) yoritilgan. Hozirgi o'zbek tilimizda buni unli harflar deb o'rganamiz.

Elbekning 2-sabog'i: Ust cho'zg'ilaridan "o" tovishliqni ustig'a qalin cho'zadir. Shuning uchun bunga "qalin ust cho'zg'isi" deb aytildir: "qo'l", "yoz", "bor" kabi. Hozirgi kunda bu qalin va ingichka kabilar yozuvimizda va talaffuzimizda ifodalanmaydi. Shu ustunlik belgilari mavjud.

Uchinchi saboqda so'z ma'nosi quyidagicha izohlanadi: Tovishliq va tovishliq cho'zg'ilarining bir o'rung'a to'planib kishig'a belgili bir narsa anglatishig'a "so'z" deb aytildir. Bu saboqdagi Eskartish, ya'ni eslatmada "so'zlar yolg'uz tovishlarning o'zlaridan ham yasaladirlar" - deb yozilgan va misol tariqasida til, yil, qish, u, iz kabilar keltirib o'tilgan. Hozirgi o'zbek yozuvimizda ham "u" bir tovushdan va harfdan iborat, III shaxs birlidagi olmosh so'z.

Bir havo zarbi bilan talaffuz qilinadigan tovush va tovushlar yig'indisiga bo'g'in deyiladi. Bo'g'in murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda uning bu qoidasi berilmaydi. Dasturga ko'ra, o'quvchilarda so'zni bo'g'lnarga bo'lish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. Elbek asaridagi to'rtinchchi saboqda "bo'g'in" atamasni o'rniga "so'z bo'lagi atamasini qo'llagan: "Bir so'zni aytgan choqda shu so'zimiz bir va/yo birdan ortuq bo'laklarga bo'lunib eshitiladirlar. Mana shunday so'zning bo'lunib eshitilishig'a "so'z bo'lagi" derlar: qish, qu-yosh, yo-zish, o'l-di, bor-dim, o'-qu-moq-chi kabi.

Kitobcha so'ngida Elbek tilimizdag'i yot so'zlar o'mida o'z so'zlarimizni ishlatib yozishimiz kerakligini ta'kidlaydi.³

Elbekning bu sohadagi yana bir xayrli ishi 1922-yilda Fotih Sayfi bilan hamkorlikda boshlang'ich muktablar uchun "O'zbekcha o'qish kitobi" darsligini yaratdi. Bunda Elbek o'zbek mumtoz adabiyotining daho ijodkorlari haqida o'quvchilarbop maqolalar yozadi. Elbekning shunday xayrli ishlaridan yana biri yoshlarni ma'nani yetuk qilib tarbiyalash masalasiga katta e'tibor berishidir. Jumladan, uning muktablarning 4-bo'lim(sinf) o'quvchilari uchun milliy ruh ufurib turgan "Go'zal yozg'ichlar" nomli darslik-majmua yaratishidir. 1923-yilda(1924, 1925) nashrdan chiqqan bu to'plamda A.Avloniy, Botu, Cho'lpon va ko'plab adabiyot namoyondalarining sara namunalari keltirib o'tilgan.

O'tgan asrning 20-30-yillari o'zbek she'riyati taraqqiyotini millatparvar shoir Elbek (Mashriq Yunusov) ijodisiz tasavvur etish qiyin. Ma'lumki, bu davrda ko'p shoirlar Cho'lponga ergashib she'rlar yozdilar. Uning isyonkorona ruhdagi yoniq satrlari barcha ijodkorlar qatori Elbekka ham ta'sir ko'rsatdi. Elbekning lirik merosi ancha boy. Uning ilk she'riy to'plami "Armug'on" 1921-yilda nashr qilingan. "O'zbek yosh shoirlari" to'plamiga ham shoir she'rlaridan namunalar kiritilgan. Uning bolalar va katta yoshdagilar uchun "Bolalar qo'shig'i", "Mehnat kuylari", "Ashulalar to'plami", "Yolqinlar", "Sezgilar", "Kozgu", "G'unchalar", "Chirchiq bo'yalarida", "Bahor" singari to'plamlari fikrimizni tasdiqlaydi. Professor Haydarali Uzoqov mavjud to'plamlardagi she'rlarni saralab, Elbek "Tanlangan asarlar"iga kiritdi.

Salimxon Tillaxonov xotiralarida Elbekni Cho'lpon darajasidagi shoir sifatida tilga oladi: "Elbek ham O'zbekistonning Cho'lpondan keyingi milliy shoiridir". Yaxshi bilamizki, Cho'lpon o'zbek xalqining millatparvar, erk va istiqlol uchun kurashgan yorqin vakili. O'z davrida

¹ Haydarali Uzoqov. Elbek. Tanlangan asarlar. -Toshkent: "Sharq", 1999-yil.

² Haydarali Uzoqov. Elbek. Tanlangan asarlar. -Toshkent: "Sharq", 1999-yil.

³ Ulug'murod Sultanovich Amonov. Sh.R.Safarova. Boshlang'ich sinf ona tili darsligining Elbek talqinidagi ko'rinishi.

"Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish: strategiya, innovatsiya va ilg or tajribalar" xalqaro ilmiy-amaliy anjumanining materiallari. 20-sentyabr 2021-yil. 183-185-b.

Elbekning uning bilan yonma-yon turishining sabablarini bilish uchun shoir she'rlariga nazar tashlash lozim bo'ladi.¹

Elbek 1923-yili "Boshlang'ich mакtabda ona tili" o'quv-uslubiy qo'llanmasini yaratdi. Aytish mumkinki, asar ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha birinchi uslubiy qo'llanmadir. Asarda muallif metodika ilmining amaliy masalalari bilan bir qatorda, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish masalasiga pedagogika va metodika ilmining birlamchi va o'ta mas'uliyatli vazifasi sifatida qaraganligining guvohi bo'lamiz: "Ulug' bir vazifa – bolaga tuzuk tarbiya berish uchun uni go'zal adabiyot bilan tanishtirish ham bolani tushunib, uqub o'qishga o'rgatish kerakduri", deb yozadi Elbek.²

Asar muallifi Mashriq Yunusov maktablarda ona tili va adabiyotini o'qitish masalasiga ustozlari kabi millatning hayot va mamoti masalasi sifatida qaradi: "Bir elning maktabin tirdizaturg'on narsa u elning ona tilisidur. Tili bo'lak el turi bo'lak maktab izlaydur. Bir elning mакtabi o'sha elning negiziga qurulg'on bo'lmog'i tegishdur. Chindan u shunday bo'ladur. Biroq bir elning tarixida turli sabablar bilan el mакtabi bir davrlarda onasidan ayrilib yetim bo'lib qolishi mumkindur. Shunday davr biz – o'zbeklar mакtabi(ning) boshidan-da kechdi, to'g'risi, endi kechib turibduri".

Bolalar ruhiyatini nozik his qilgan shoir, pedagog Elbek o'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi, o'nlab bolalarbop she'rlar, masallar to'plamlari, xalq og'zaki ijodi yo'llarida dostonlar yaratdi. Yirik adabiyotshunos, tilshunos olim, yozuvchi va pedagog Ashurali Zohiri yuda to'g'ri ta'kidlaganidek: "Shoir Elbek xalq mulki – og'zaki adabiyotini adabiyotini xalqdan olish va xalqqa qaytadan yetkazishda el tilining tushunarli ta'sirlaridan ko'b foydalangan, el bolalar adabiyotida masalchilikni yaratgan katta san'atkordur".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonov U.S. O'zbek folklorshunosligi xrestomatiyasi. -Toshkent: "Paradigma", 2018-yil, 99-120-betlar.
2. Amonov U.S. Armug'on yoldinlar. -Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2017.
3. Amonov U.S. O'zbek tili. -Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2011.
4. Amonov U. S. Turkiston o'lkasida usuli jadid mакtablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs journali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 412-414.
5. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
6. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 403-407. 8.
7. Amonov U. S. Folklore in the works of Abdurauf Fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
https://www.researchgate.net/publication/309593503_FOLKLORE_IN_THE_WORKS_OF_ABDURAUF_FITRAT <https://www.semanticscholar.org/paper/FOLKLORE-IN-THE-WORKS-OF-ABDURAUF-FITRAT> Amonov/dcc79abce08ba4602c2dc5b5ae3a87b345797d63
8. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of uzbek folklore. "Academicia" An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249- 7137.2020
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=6&article=096>
9. Amonov U.S. Jadidchilik harakati va "Buxoroyi sharif" ro'znomasi. "Ta'lim va innovatsiyalar" journali №5. 2022-may. 62-68-betlar.
<http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1183/448>

¹ Amonov Ulug'murod Sultanovich, Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek – bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" "Ayniy vorislari" 2023-yil.73-77-betlar.

² Saparova Shahlo Ramazonovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik journal. 2023-yil aprel. 68-77-betlar. <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52> <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52/128>

10. Amonov U.S. Новые грани творческого наследия Элбека. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2020 yil. 4-son. 62-63-betlar.

11. Amonov Ulug'murod Sultonovich, Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek – bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" "Ayniy vorislari" 2023-yil.73-77-betlar. https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy_vorislari_1_2023.pdf.

12. Amonov Ulug'murod, Saparova Shahlo. Both creative and teacher. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI Buxoro davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek va rus tillari kafedrasи Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil, 15-may. 230-232-b.

13. Haydarali Uzoqov. Elbek.Momoguldurak. Toshkent: "Cho'lon",1993-yil. 144-b.

14. Haydarali Uzoqov. Elbek. Tanlangan asarlar. Toshkent: "Sharq", 1999-yil.

15. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek philologist, teacher, children's poet" "Boshlang'ich ta'limga zamonaviy tendentsiyalari: Ta'limga tarbiya integratsiyasi" III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax shahri. 2023-yil 4-may. 75-78-betlar

16. Saparova Shahlo Ramazonovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari" "Ta'limga innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-yil aprel. 68-77-betlar. <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52> <https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52/128>

HUQUQIY TA'LIM VA UNING O'ZBEKISTON HUDDUDIDA SHAKLLANISHI

Jumayeva Feruza Faxriddinovna
Buxoro davlat pedagogika institute tayanch doktoranti

Huquqiy ta'limga mas'ul davlat organlari tomonidan tasdiqlangan ma'lum bir huquqiy tushuncha, bilim va ko'nikmalarni aniq maqsad asosida tizimli, rejali tarzda ta'limga oluvchilarda shakllantirishga qaratilgan faoliyat jarayonidir. Huquqiy ta'limga oluvchilarda nafaqat huquqiy savodxonlikni shakllantirish balki huquqiy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan yurtimiz olimasi H. To'ychiyeva o'z dissertatsiyasida huquqiy ta'limga quyidagicha ta'rif beradi "Huquqiy ta'limga hayotiy-amaliy faoliyatda qo'llaniladigan va egallanishi zarur bo'lgan huquqiy ma'lumot va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli, rejali va muayyan maqsadga yo'naltirilgan nazariy va amaliy faoliyat jarayonidir" [1]. Xo'sh, dunyo hamjamiyatida huquqiy ta'limga qachondan boshlangan? Albatta bu savolning javobi ilk davlatchilik tuzumi boshlangan davrlarga borib taqaladi. Sababi shundaki davlat paydo bo'libdiki uni boshqarish uchun ma'lum bir ijtimoiy-huquqiy normalar paydo bo'lgan, garchi bu asosan "odat huquqi" tarzida namoyon bo'lgan bo'lsada, hamda bu normalar avloddan avlodga o'rgatilib, xalq, aholi munosabatlari shu normalar orqali tartibga solingan. Qadimgi Rimda maxsus ritorika maktablarda o'quvchilarga alohida huquqiy ta'limga berilgan, lekin hali bu jarayon tizimli bo'lmagan. Miloddan avvalgi 3-asrda birinchi plebey pontifex maximus-ruhoni amaldorlar boshlig'i Tiberiy Korunkaniy ruhoni bo'lmagan o'quvchilarga ommaviy huquqiy yo'rinnomalar berdi va ular jurisprudentes-yuridik maslahatchilar deb ataldi. Jurisprudenslar huquqiy adabiyotlarni o'qish bilan birga ustozlari bilan turli xil huquqiy masalalarini muhokama qilish orqali qonunni o'rganishi mumkin edi. Keyinchalik aynan shu o'quvchilar o'zlarini huquqshunoslar sifatida namoyon etdilar [2]. Shu o'rinda huquqshunos olim Z.Islomovning quyidagi fikrlarini eslatib o'tish joiz "Huquqiy bilim berishni ta'limga muassasalarida maxsus huquqiy fanni o'qitish, shuningdek, maxsus ta'limga uslublarini qo'llash orqali amalga oshirish yaxshi samaralar beradi" [3]. Darhaqiqat, yuqorida huquqiy ta'limga vujudga kelishi tarixi haqidagi fikrlarimiz ham olimning fikrlarini tasdiqlayapti hamda hozirgi jamiyatimiz uchun ham dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

Qadim sharq ayniqsa Markaziy Osiyo hududi davlatchilik tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Va aynan yurtimiz xalqlari chuqur davlatchilik g'oyaviy-ma'naviy negizlariga



Kazan
Federal
UNIVERSITY



AUEZOV
UNIVERSITY
1943



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
“Boshlang'ich ta'lif mazmunini takomillashtirish:
o'quv dasturi-o'qituvchi-baholash”
xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda faol ishtiroki
uchun

Saparova Shahlo Ramazonovna

S E R T I F I K A T

BuxDU rektori



O.X.Xamidov